

15-dars

Darsning mavzusi: Jarangli va jarangsiz undoshlar (38 – 40-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning unli va undosh harflarning o'ziga xos xususiyatlari, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarni aniqlash va mustahkamlash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bo'lish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilishni bilish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: kattalarga hurmatda bo'lish, ularni qadrlashga o'rgatish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish.

Darsning trivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, "O'zingni yelpi!" ta'limiy o'yini

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Rost so'zni ayt, Yomon so'zdan qayt.*

Uy vazifasini so'rash orqali o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimi aniqlanadi. Qo'shimcha savollar berilib, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Mustahkamlash.

Shundan so'ng darslikda berilgan mashqlar bajartiriladi:

38-mashq. Soʻzlarning oxiriga kerakli undoshlarni qoʻyib koʻchiring.

Umid-umidi, odob-odobi, javob-javobi, ayb-aybi, daromad-daromadi, maktab-maktabi, sabab-sababi, bunyod-bunyodi, murod-murodi, yod-yodi, ozod-ozodi, qudrat-qudrati

39-mashq yozma bajariladi. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar koʻchiriladi, guruhlarda ishlangan holda soʻzlardagi tovushlar jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratiladi.

Xalq, rostgoʻylik, qattiq, mardlik, haqgoʻylik, ishonch.

Rostgoʻylik haqida maqollar tinglanib, ularning maʼnosiga toʻxtalib oʻtiladi.

Rost soʻzingni yashirma.

Boshingga qilich kelsa ham rost soʻzla.

“Oʻzingni yelpi” taʼlimiy oʻyini. Bir oʻquvchi taklif etilib, unga yelpigʻich beriladi. Oʻquvchilar unga savollar beradilar. Doskadagi oʻquvchi savolga tez javob berishi lozim. Javob bera olmasa, yelpigʻich bilan oʻzini yelpiydi. Agar yelpigʻichda oʻzini yelpish esidan chiqsa, magʻlub boʻlib, oʻyindan chiqadi. Javob berolmasa ham oʻzini yelpisa, keyingi savolni qabul qilishi mumkin boʻladi.

Oʻyin oxirida uning nechta savoldan qanchasiga javob bergani aniqlanadi. Shu tariqa oʻquvchida ziyraklik, topqirlik, oʻzini tuta bilish layoqatlari rivojlantiriladi.

Savollar:

1. Oʻzbek tilida nechta harf bor?
2. Tovushlar soni nechta?
3. Unli tovushlarni ayting.
4. Jarangli undoshlarni sanang.
5. Kitob soʻzidagi jarangsiz undoshlarni ayting.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida oʻquvchilar joriy darsda oʻzlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. Soʻngra dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

40-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi taʼkidlanadi.